



## INTERNET QANDAY ISHLAYDI

**Dadaxon Raimboyev**

Qoraqalpoq davlat universiteti

qoraqalpoq filologiya va jurnalistika

fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6969084>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> June 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> July 2022

Online: 02<sup>nd</sup> July 2022

### KEY WORDS

WWW, web brauzer,  
sahifa, explorer

### ABSTRACT

*Ushbu maqola internetning qanday ishlashi undagi web sahifalar va aloqalar haqida yozilgan.*

Hozirgi kunda internetning xizmati kundan-kunga rivojlanib mukammal ma'lumotlar manbaiga aylanib bormoqda. Uning yordamida istalgan sohada istalgan vaqtda ma'lumotlarni qidirib topish ulardan foydalanish zarur bo'lsa ulardan nusxa olish mumkin. Internetda muloqot qilish axborotlarni yig'ish va e'lon qilishdan tashqari har bir onlayn jurnalist uni qay tarzda ishlashini axborotlar qaysi tamoyillari va usullar yordamida uzatilishini tushunib yetishi lozim. Buni quyidagi misol yordamida tushuntirishga harakat qilaman. Nima uchun Amerika bilan telefon orqali gaplashishning har daqiqasi 3 4 AQSH dollari turadi xuddi shu muloqot internet orqali amalga oshirilsa bir necha 10 barobar kam harajat talab qiladi. Buning sabablarini o'rganganimda odatda telefon yordamida ikki kishi muloqot davomida ushbu aloqa kanalini band qilib uni va ushbu aloqani ta'minlashda ishtirok etayotgan texnik vositalarini monopol

ravishda egallab olishgan bo'ladi. O'zaro muloqot qilayotgan mijozlar orasidagi masofa qancha uzoq bo'lsa shuncha ko'p aloqa vositalari ishtirok etadi va ularning narxi ham oshib boradi. Internet amalga oshirilganda aloqalar va unda ishtirok etuvchi biror-bir texnik vosita ham butkul egallamaydi. Mijoz kompyuterga yetib kelgan paketlar yagona bir hujjatda yig'iladi har bir paket jo'natilayotganda va kimdan qayerda chiqilishi kerakligi haqidagi axborotni o'zida jamlagani uchun bir aloqa kanallarining o'zida bir qancha mijozlarning paketlarini bir vaqtning o'zida aralashtirib uzatish uchun bo'ladi bu paketlar ushbu oqim ichida yo'qolib ham qolmaydi. Ularni qaysi mijozlarga tegishli ekanliklarini hamda egalariga to'la to'kis yetib borishligini maxsus dastur va texnik vositalar qat'iy nazorat qilib turadi. Shunday qilib Amerika bilan Toshkentni yoki Yevropani bog'lab turgan aloqa kanallari bir vaqtning o'zida millionlab mijozlarga xizmat



ajratish mumkin. Ma'lumki internet dunyo miqyosida yuz millionlab kompyuterlarning tarmog'iga birlashtirib unda milliyonlab xos tugunlar mavjud. Bunday murakkab tizimga ega bo'lgan tarmoqning ixtiyoriy bir qismi yoki tugunni shikastlanishi yoxud ishdan chiqishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun paketlar oqimini optimallashtirish va boshqarish uchun tarmoqda „marshrutizator“ lardan foydalaniladi. Natijada bir mijozdan ikkinchi mijozga uzatilayotgan hujjatlarning paketlari bir necha xil mahsulotlar bilan yetib borishi mumkin. Bunda paketlarning manziliga yetib borish tartibi va vaqti turlicha bo'lishining ahamiyati yo'q paketlariga paket markazi markerlanganligi va maxsus tarkibi paketlarning qaysi tartibda yetib kelishidan qat'i nazar ularni yagona bir elektron hujjat shaklida yurish imkonini beradi. Mijoz kompyuterda internet imkoniyatlaridan foydalanish uchun veb sahifalarni ko'rish imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta'minot bo'lishi zarur. Bunday dasturiy

ta'minoti va brovzer deb ataladi. Eng birinchi brovzer hodimi Tim Berner tomonidan kashf etilgan eng birinchi grafik ma'lumotlarni ekranda aks ettiruvchi veb brovzer MOSAICAN bir necha talabalar tomonidan ishlab chiqilgan. Dunyodagi eng ko'p foydalaniladigan veb brovzerlar Netsappe camunication, internet explorer hisoblanadi. Veb brovzerlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu internetning 3ta davrli xizmatidagi ma'lumotlar joylangan veb-sahifalarni qaysi texnologiya yordamida ishlashdan hamda qayta dasturlar tilida yozilganidan qat'iy nazar undan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yaratib berishdir. Bu talabga barcha brovzerlar ham javob berolmaydi. Bunga misol qilib Microsoft kompaniyasi mahsuloti bo'lgan Visual Basis Cript tili qo'llanilgan veb-sahifalarni ekranda aks ettira olmaganligini keltirish mumkin. Internet ekstre brovzer esa ixtiyoriy versiyani hech qanday muammolarsiz ko'rish va undan foydalanish imkonini yaratib beradi.